

## **OILAVIY MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASHDA OTA-ONALARNING O‘ZARO MUROSA TAMOYILINING “IBRAT MAKTABI” MODELII**

**Toshmurodov Mirolim Ismoil o‘g‘li,**  
*Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti doktoranti*  
*E-mail. [toshmurodovmirolim96@mail.ru](mailto:toshmurodovmirolim96@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarni mustahkamlashda ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro murosa tamoyilining ahamiyati “ibrat maktabi” modeli asosida tahlil qilinadi. Unda ota-onalarning shaxsiy namuna ko‘rsatishi orqali farzandlar tarbiyasiga ta’siri, axloqiy qadriyatlar shakllanishi va sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishdagi o‘rni ilmiy asosda yoritiladi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shuningdek, oiladagi ijobiy muhitning barqaror rivojlanishga ta’siri ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** oilaviy munosabatlar, murosa, ota-ona, ibrat, tarbiya, axloq, qadriyatlar, ijtimoiy muhit, farzand, barqarorlik.

**Аннотация.** В данной статье анализируется важность принципа взаимного компромисса между родителями в укреплении семейных отношений на основе модели «образцовой школы». Научно освещается влияние родителей на воспитание детей через их личный пример, формирование нравственных ценностей и их роль в создании здоровой социальной среды, а также разрабатываются практические рекомендации. Показано также влияние позитивной семейной среды на устойчивое развитие.

**Ключевые слова:** семейные отношения, компромисс, родители, модель, воспитание, нравственность, ценности, социальная среда, ребенок, стабильность.

**Abstract.** This article analyzes the importance of the principle of mutual compromise between parents in strengthening family relations based on the “model school” model. It scientifically highlights the influence of parents on the upbringing of children through their personal example, the formation of moral values, and their role in creating a healthy social environment, and develops practical recommendations. It also shows the impact of a positive environment in the family on sustainable development.

**Keywords:** family relations, compromise, parents, model, upbringing, morality, values, social environment, child, stability.

**Kirish.** Bugungi kunda insoniyat sivilizatsiyasi chuqur ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy o‘zgarishlar bosqichida yashamoqda. Raqamli kommunikatsiyalar, globallashuv, madaniy xilma-xillik va individualizmning kuchayishi oilaviy munosabatlar tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib ulgurdi. Shu sharoitda jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti bo‘lgan oila o‘zining barqarorlik, mehr-muhabbat, o‘zaro hurmat va tarbiya makoni sifatidagi funksiyasini saqlab qolishi uchun murosa tamoyiliga asoslangan “ibrat maktabi” modeli alohida falsafiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. “Ibrat” so‘zining ma’nosi namuna, o‘rnak qadimdan islom dini pedagogikasi va tasavvuf adabiyotlarida ishlatilgan. Oilaviy munosabatlar va jamiyat hayotida ibrat va murosa g‘oyalari tarixan mavjud. Ibrat tushunchasini XIX-asrda yozma manbalarida ham uchratish mumkin. Niyozmuhammad Xo‘qandiy o‘zining asarida. “Padari buzrukvoli qoldirilgan yaxshi qoida va qonunlarga rioya qilib, meros qolgan xizmatkorlarni hurmatli mansablar bilan ardoqlab, ularning maosh va oziqalarini

ko‘paytirib, dod va adolatga mashg‘ul bo‘ldi. Muhammad Alixon shaxsiyatiga alohida to‘xtaladi. Uning otasidan olgan o‘giti, tarbiyasi va namunasini alohida ta‘kidlaydi”[1]. Mazkur model tarixan tarkib topib kelgan u ijtimoiy va oilaviy munosabatlarda o‘zaro ibrat, sabr, kechirimlilik va muloqot madaniyatini tiklash orqali shaxsning ma‘naviy kamoloti va jamiyat barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy falsafada oila – bu insonning axloqiy o‘zlikni anglash, ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirish va qadriyatlarni avloddan avlodga o‘tkazishning asosiy muhitidir. Ota-onalar o‘rtasidagi murosasi esa bu jarayonning ruhiy-axloqiy asosini tashkil etadi. Murosa – bu faqat kelishuv emas, balki insoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta‘minlovchi, ziddiyatlarni yengillashtiruvchi va ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlovchi madaniyatdir. Falsafiy jihatdan qaraganda, “murosa tamoyili dialektikaning “qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi” qonunini insoniy munosabatlar darajasida amaliy ifodalaydi. Oila hayotida kelishmovchiliklar tabiiy, ammo ularni to‘g‘ri yo‘naltirish, sabr va ibrat asosida bartaraf etish insonni yetuklikka olib boradi”[2]. Shunday qilib, murosa – oilaviy hayotda nafaqat tinchlikning, balki axloqiy kamolotning ham mezonidir.

**Muhokama va natijalar.** “Ibrat maktabi” modeli – ota-onalarning o‘zaro muloqot, xulq, qaror va mas‘uliyatdagi uyg‘unligini farzandlar uchun jonli namuna sifatida ifodalovchi tizimdir. Bu modelning falsafiy mohiyati aksiologik (qadriyatli), ontologik (mavjudlikka oid) va gnoseologik (bilishga oid) jihatlarni o‘zida mujassam etadi. **Aksiologik jihatdan**, ibrat oilaviy qadriyatlarning o‘zaro uzviyligini ta‘minlaydi. Ota-ona o‘z munosabatlarida murosani amalda ko‘rsatish orqali farzand ongida hurmat, sabr, mas‘uliyat kabi axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi; **Ontologik jihatdan**, oila mavjudlikning ijtimoiy asosidir; unda inson o‘z “men”ini boshqalar bilan uyg‘unlikda anglaydi. Ibrat modeli shu uyg‘unlikni hayotiy tajribada mustahkamlaydi; **Gnoseologik jihatdan**, ibrat – bu bilim manbai; bola ota-onaning amaliy xatti-harakatlari orqali murosaning mohiyatini “ko‘rish orqali biladi”. “Ibrat maktabi” modeli oila ichidagi murosani nazariy tushuncha emas, balki kundalik hayotning amaliyoti sifatida namoyon etadi.

Bugungi global jarayonlarda jamiyat barqarorligi ko‘p jihatdan mikroijtimoiy birlik – oilaning sog‘lomligiga bog‘liq. Oilaviy ziddiyatlar, ajrimlar, ota-onalar o‘rtasidagi hissiy sovuqlik nafaqat oilaviy, balki ijtimoiy inqirozlarga sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, ibrat maktabi modeli jamiyatda axloqiy immunitet vazifasini bajaradi. Ota-onalarning o‘zaro murosasi farzandlarda psixologik muvozanat, o‘zini anglash, muloqot madaniyati va ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantiradi. Farzand o‘z oilasida ibratni kuzatib, keyinchalik jamiyatda konstruktiv fikr yurituvchi, bag‘rikeng va murosali shaxsga aylanadi. Shu bois, ibrat modeli shaxsiy tajribadan ijtimoiy qadriyatga o‘tuvchi ko‘prikdir.

Bizningcha, “Ibratli murosa – bu insonlar, xususan, oila a’zolari o’rtasida o’zaro hurmat, sabr va bag’rikenglik asosida qaror topadigan, har ikki tomonning axloqiy ongini yuksaltiruvchi hamda jamiyatda barqaror ijtimoiy muhitni shakllantiruvchi aksiologik-kommunikativ tamoyil bo’lib, uning markazida so’z, xatti-harakat va ichki e’tiqod birligi orqali ibrat ko’rsatish yotadi”[3]. Ushbu atamaning mualliflik ta’rifini kategoriya sifatida izohlaganda, uning aksiologik mohiyati “Ibratli murosa” – bu nafaqat kelishuv yoki to’qnashuvlarni bartaraf etish vositasi, balki yuksak axloqiy qadriyat sifatida insonni o’z “Men”idan tashqariga chiqib, boshqani anglashga chorlaydi. U o’zaro kechirimlilik, hurmat va odobning qadriyati shaklida namoyon bo’lishidir. Ontologik jihati, bu tamoyil ijtimoiy mavjudlikning ichki uyg’unligini ifodalaydi. Inson o’zining mavjudligini boshqalar bilan muloqotda “ibrat” orqali tasdiqlaydi. Demak, murosa – bu mavjudlikning axloqiy tarzda yashashidir.

Kommunikativ mazmuni, “Ibratli murosa”da muloqot ikki tomonlama axloqiy amaliyotdir. bir taraf so’zda kechirimlilikni bildirsa, ikkinchi taraf amalda ibrat ko’rsatadi. Shu bois u nafaqat dialogik, balki didaktik xarakterga ega – har bir murosa boshqalar uchun ibrat manbai bo’ladi. Sotsiomadiy jihati, “Ibratli murosa” oila, jamoa va jamiyat hayotida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi madaniy norma sifatida ishlaydi. Ota-onaning o’zaro ibratli murosasi farzandlar ongida axloqiy me’yor sifatida mustahkamlanadi va ijtimoiy ongning barqaror shakliga aylanadi.

Sharq tafakkurida oila va murosa tushunchalari qadimdan inson kamolotining markazida turadi. Abu Nasr Forobiy o’zining “Fozil shahri” asarida “adolatli jamiyatning poydevori – oila ichidagi axloqiy uyg’unlik”[4] deb ta’kidlasa, Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”da insonlar o’rtasida murosa va ibratni insoniylikning oliy darajasi sifatida talqin qiladi. Unga ko’ra, “bir insonning xulqi — boshqasiga ibrat bo’lishidadir”[5]. Bu g’oya zamonaviy ibrat maktabi modelining falsafiy ildizlarini tashkil etadi. Shuningdek, Habermasning “kommunikativ faoliyat nazariyasi”dagi o’zaro tushunish g’oyasi ham murosa tamoyilining zamonaviy ifodasi bo’lib, oila ichidagi axloqiy muloqotning nazariy asosi sifatida muhimdir.

Yangi O’zbekiston taraqqiyotida oila institutini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biridir. Prezident Shavkat Mirziyoyev o’z nutqlarida “Oilani mustahkamlash – jamiyatni mustahkamlash demakdir” degan tamoyilni ilgari surgan. Shu bois oilaviy murosa madaniyatini yuksaltirish milliy g’oya va ma’naviy siyosatning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. “Ibrat maktabi” modeli bu yo’nalishda nazariy va amaliy asos sifatida xizmat qiladi. U nafaqat ota-onalar o’rtasidagi munosabatlarni, balki jamiyatdagi ijtimoiy hamjihatlikni, ma’naviy barqarorlikni va milliy birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy falsafada inson munosabatlarining mohiyatini tahlil qilishda “murosa”, “oilaviy” va “ibrat” tushunchalari o’zaro uzviy bog’liq bo’lgan uchta asosiy ijtimoiy-

axloqiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Ular jamiyat barqarorligi, ijtimoiy birdamlik va ma’naviy uyg‘unlikni ta’minlovchi omillar sirasiga kiradi. Ushbu tushunchalarning dialektik uyg‘unligi – insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lgan oilaning mavjudligi va rivojlanishini tushinishda muhim metodologik yondashuv hisoblanadi.

“Murosa” (arabcha “al-musolaha” (صلح) – kelishuv, o‘zaro yon bosish) ijtimoiy falsafada konfliktologik jarayonlarning yumshatilish shakli, axloqiy ongning yetuk darajasini ifodalaydigan tamoyil sifatida talqin qilinadi. Bu tushuncha o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy hamkorlik, muloqot madaniyati va ma’naviy muvozanatga intilishni bildiradi. Murosa jamiyatdagi turli qarama-qarshiliklar o‘rtasida “oltin o‘rtalik” (Aristotel)ni topish san’ati bo‘lib, u Forobiyning “fazilat – ifrat va tafrit (u islom falsafasi va axloq ilmida, shuningdek, Forobiy ta’limotlari ta’sirida shakllangan axloqiy me’yor tushunchasining ikki qarama-qarshi qutbini bildiruvchi atamalardir) o‘rtasidagi me’yor” haqidagi g‘oyasi bilan hamohangdir.

Oilaning ijtimoiy-falsafiy tahlilida murosa o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va axloqiy mas’uliyat tamoyillariga asoslanadi. Ijtimoiy murosa – bu nafaqat kelishuv, balki insoniy qadr-qimmatni tan olish va saqlab qolishning eng yuksak shaklidir. Shu ma’noda, oiladagi murosa – jamiyatdagi tinchlik va totuvlikning mikromodelidir. Oila ijtimoiy tizim sifatida ijtimoiy munosabatlarning eng kichik, ammo eng muhim bo‘g‘inidir. U jamiyatning “mikrokosmi”, ya’ni ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy tamoyillar va madaniy me’yorlarning shakllanadigan joyidir. Oila orqali inson ilk bor murosa, sabr-toqat, muloqot, va o‘zaro hurmatni o‘rganadi. Shu boisdan oila “murosa maktabi” sifatida qaraladi. Ular fazilat (me’yor) tushunchasini anglash uchun ishlatiladi.

Gegel oilani “sub’ektiv axloqning ob’ektivlashgan shakli”[6] deb ta’riflagan. Ya’ni, inson o‘z shaxsiy erkinligini boshqalar erkinligi bilan uyg‘unlashtirgan holda, umumiy yaxshilik uchun yashashni oilada o‘rganadi. Bu jarayon dialektik xarakterga ega. oila doirasidagi qarama-qarshiliklar (masalan, er-xotin qarashlari, avlodlar farqi, turli ehtiyojlar to‘qnashuvi) murosa orqali hal etiladi va natijada axloqiy yetuklik darajasi ortadi. Oila – bu insoniyat tarixida eng qadimiy va eng tabiiy murosa maktabi bo‘lib, unda shaxsning ijtimoiylashuvi, ma’naviy shakllanishi va “ibrat” qobiliyati rivojlanadi.

**Xulosa.** “Ibrat” so‘zi arabcha عِبْرَةٌ “ibratun” lug‘aviy ma’nosi (“o‘tish”, “xulosa chiqarish”, “tajriba orqali anglash”, “saboq olish”) so‘zidan olingan bo‘lib, falsafiy jihatdan u insoniy tajribaning ma’naviy natijasini bildiradi. Ijtimoiy falsafada ibrat – bu nafaqat kuzatish natijasida olingan saboq, balki boshqalarga ongli ta’sir ko‘rsatish qobiliyatidir. Ibratli shaxs – bu o‘z hayot tarzi, murosasi, e’tiqodi va axloqiy qarashlari orqali boshqalarni o‘zgartirish kuchiga ega shaxsdir. Oila muhitida ibratning roli beqiyosdir. Ota-onaning bir-biriga nisbatan murosali munosabati farzand ongida axloqiy

me’yorlar tizimini shakllantiradi. Shu sababli, oiladagi “ibratli murosa” – bu soʻzdagi kelishuv emas, balki hayotdagi uygʻunlikdir. U ijtimoiy falsafaning amaliy koʻrinishiga aylanadi.

“Murosa”, “oila” va “ibrat” tushunchalari oʻzaro dialektik aloqadorlikda mavjud. **Murosa** – ijtimoiy va ma’naviy jarayonning harakatlantiruvchi kuchi, ya’ni oʻzaro anglashuvning vositasi; **Oila** – bu murosaning real ijtimoiy maydoni, u yerda insonlar bir-birini sinovdan oʻtkazadi va anglaydi; **Ibrat** – murosa jarayonining natijasi, ya’ni oʻzaro hurmat va bagʻrikenglikdan kelib chiqadigan ma’naviy hodisadir. Dialektik jihatdan, bu uch tushuncha oʻzaro inkor va uygʻunlik orqali rivojlanadi. Oila murosasiz mavjud boʻla olmaydi, murosa esa ibratsiz oʻz kuchini yoʻqotadi. Shu bois “ibratli murosa” degan tushuncha oʻzida bu triadaning ichki birligini mujassam etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Niyozmuhammad Hoʻqandiy - Niyoziy. Ibrat ul havoqin (Tarixi Shohruxiy). Tarjimon, tabdil, izohlar muallifi Sh. Vohidov. – Toshkent.. “Turonziyo”, 2014. – B.102.
2. Ермолович, Д.В. Обоснование коммуникативной практики и онтогенез общения как каузальный образ личностного самоопределения // Вести Института современных знаний. – 2022. – № 2. – С. 117.
3. Қаххорова М., Тошмуродов М. Оилавий муносабатлар. миллий ва умуминсоний мураса тамойиллари. // ОʻzXIA. Islom ziyosi № 1. 2024. – B.71.
4. Абу Наср Форорбий. Фозил одамлар шахри. (Таржимон Абдусодиқ Ирисов, Маҳкам Маҳмудов, Урфон Отажон). – Тошкент.. «Янги аср авлоди», 2022. – Б.238.
5. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. – Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2019. – B.176.